



**MUSIQIY KOPOZITSION TENDANTSİYALARİNG TARİXİY
JARAYONLARDA NAMOYON BO'LISHI (OPERA VA BALET MISOLIDA)**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12545070>

Qirg'izov Imyamin

Farg'ona davlat universiteti dotsenti.

Farg'ona, O'zbekiston.

qirgizovimyamin@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada musiqiy kopozitsion tendantsiyalar, professional cherkov musiqasi, opera va balet janrlarining tarixiy ildizlari, O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining o'zbek tilida jahon mumtoz Opera namunalarining sahnalashtirilishi, opera san'atining jahon miqqosidagi va O'zbekiton musiqasi rivojidagi ahamiyati haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar

kompozitsion tendantsiya, cherkov musiqasi, xor, vokal-cholg'u janrlari, organum, konduktlar, trubadurlar, truverlar, minnezing, dramatik san'at, opera, musiqali teatr, kompozitor, orkestr.

АННОТАЦИЯ

В данной статье описаны тенденции музыкального сочинения, исторические корни профессиональной церковной музыки, жанры оперы и балета, постановка образцов мировой классики оперы на узбекском языке русскими композиторами, творившими в Узбекистане, значение оперного искусства в мире и в развитии узбекской музыки.

Ключевые слова

композиционное направление, церковная музыка, хор, вокально-инструментальные жанры, орган, дирижеры, трубадуры, труверы, миннезин, драматургия, опера, музыкальный театр, композитор, оркестр.

ABSTRACT

This article describes the musical composition tendencies, the historical roots of professional church music, opera and ballet genres, the staging of world classic opera examples in Uzbek by Russian composers who created in Uzbekistan, the importance of opera art in the world and in the development of Uzbek music.

Key words



compositional tendency, church music, choir, vocal-instrumental genres, organum, conductors, troubadours, trouvers, minnesing, dramatic art, opera, musical theater, composer, *orchestra*.

Kirish. Musiqiy kopozitsion tendantsiyalar inson hissiy kechinmalari, fikrlari, tasavvur doirasini musiqiy tovush izchilligining aks ettiruvchi san'at turida ya'ni, yunonchadan muzalar san'ati sifatida mazmunan o'zgaruvchan ruhiy holatlarni ifodalovchi muayyan musiqiy badiiy obrazlardan iborat bo'lgan ijod faoliyat turidir. Musiqiy kopozitsion tendantsiyalar insonning ko'tarinkilik, shodlik, zavklanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va boshqalarni o'zida mujassamlashtiradigan kayfiyatlar jarayoni sifatida shaxsning tarbiyaviy-ruhiy jihatdan kat'iyatlilik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik kabi irodaviy sifatlarini tartibga solish, tuzib chiqish mahoratini tarkib topdiradigan ta'limiy ob'eektdir.

Musiqa asarini yaratish va ijro etish jarayonida hamisha ta'limiyy-tarbiyaviy yechimni topish nazarda tutiladi. Macalan badiiy mazmun, estetik qoidalar musiqiy asarlari shakliga badixago'ylik kabi kompozitsion xususiyatlar ta'limiyy ta'sirini o'tkazadi. Individual badiiy obrazlarni ifodalashga qaratilgan kompozitorlik san'ati esa ko'proq aynan musiqiy rivojlanish qoidalariga, ya'ni tugallangan, yaxlit va barqaror tendentsion mayl hamda qiziqishlarni tarbiyalaydi.

Shuningdek hissiyotga to'lган nutq oxangi (G.Spenser), qushlarning sayrashi va hayvonlarning o'z juftlarini chaqirishi (Ch.Darvin), (K.Byuxer) ibtidoiy odamlarning mehnat usullari va ularning chaqiriq tovushlari, (J.Kombare) jodushehrlash ilk manbalar ko'rinishida bo'lg'usi musiqa o'qituvchisida musiqaning tarixiy ildizlaridan didaktik saboq oladilar. Shu ma'noda Sharq mutafakkirlari musiqaning vujudga kelish muammosi Abu Nasr Forobiy inson nutqining shakllanish jarayoni va hissiyotlari bilan bevosita bog'liqligi, Ibn Xaldun ijtimoiy tizimlarning shakllanish konuniyatlariga asoslanganligi haqidagi ilmiy xulosalardan voqif bo'ladilar.

Nazariy asoslar. Professional cherkov musiqasi, bir ovozli grigorian xorali, keyinchalik ko'p ovozli xor va vokal-cholg'u janrlari - organum, konduktlar singari kompozitsion tizim, Frantsiyada dunyoviy musiqa-trubadurlar, truverlar, minnezingerlar san'ati hamda xalq musiqasi, rivoj topganligi, Bibi Maryam ibodatxonasida birinchi kompozitorlik maktabi 12-asrda Fransiyada tashkil topganligi, Frantsiya va Italiyada "Arenova" 14-asrda uslubi yuzaga kelganganligi. to'rt chiziqli nota yozuvi tovush balandligi va nag'malar uyg'unligini aniq qayd etilishi, Gvido d Aretsso ixtiro etgan maktablar bo'lajak musiqa o'qituvchilarida muayyan tendentsion harakatni bajarishga intilish haqida tasavvur va shu yo'ldagi kechinmalarni yuzaga chiqarishga moyillik baxsh etadi.



Musiqali dramatik san'at janri o'zida bir nechta turlarini uyg'unlashtirib, sahnaviy jarayonda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san'at va raqs san'ati shakllari yaxlit uzviy bog'lanib, ular orasida yetakchi o'rinni musiqa egallaydi. Libretto operaning adabiy asosi bo'lib, voqealar musiqiy dramaturgiya vositalari bilan, vokal musiqa shakllarini mujassam etadi. Hissiy kechinmalar tugal musiqa talqinida o'z ifodasini topadi.

Opera janri O'zbekistonga o'zbek musiqali dramasining rivoji asosida va chet el mumtoz operasining ta'sirida kirib keldi. Toshkentga gruzin - 1894, 1907-1915 yillarda - ital'yan, tatar, rus, ozarbayjon opera truppalari gastrolga kelishlari ta'sirida 1918 yildan Toshkentda Rus opera teatri o'z faoliya vatini boshlagach 1929 yili M.Qoriyoqubov tashabbusi bilan o'zbek musiqali teatri o'z faoliyatini davom ettirdi. Repertuari asosan, musiqali dramalardan iborat bo'lib, mazkur teatr sahnasida «Er Targ'in» (E.Brusilovskiy, 1937) va «Nargiz» (M. Magomayev, 1938) ning o'zbek tilida qo'yilgan birinchi operalari o'zbek tomoshinbalarida kompozitsion tendentsiyaalr jarayoniga asos solindi.

O'zbekistonda ijod qilgan rus kompozitorlarining mahalliy mavzudagi (R.Glier, T.Sodikov, «Layli va Majnun», 1940; «Gulsara», 1949; A.Kozlovskiy, «Ulug'bek», 1942) o'zbek tilida jahon mumtoz Opera namunalarining (J. Bizingen «Karmen», 1944; P.Chaykovskiyning «Evgeniy Onegin» 1947 yil va boshqalar) sahnalashtirilshi keyinchalik o'zbek kompozitorlarining afsonaviy-romantik, tarixiy, lirik, zamonaviy mavzulardagi mustaqil operalari orqali kompozitsion tendentsiyalar. O'zbek bolalar operalari: «Dilorom», «Shoir kalbi» (M.Ashrafiy), «Xamza» (S.Boboyev), «Xorazm qo'shig'i» (M.Yusupov) birinchi o'zbek hajviy operasi «Maysaraning ishi» (S.Yudakov), bir nechta chet mamlakatlar teatrlarida namoyish qilinib, O'zbek kompozitorlari 1970-80 yillari «Mangulik» (U.Musayev), «Fidoyilar» (S.Boboyev), zamonaviy - «Sadoqat» (R.Abdullayev), atoqli shaxslarga bag'ishlangan - «Sug'd elining qoploni» (I.Akbarov), «Zebunniso» (Sayfi Jalil), «Alisher Navoiy» (M.Burhonov), shuningdek, kamer operalar - «Sohilda to'qnashuv» (N.Zokirov), «Ona qalbi» (H.Rahimov) va boshqalar sahnalashtirildi va opera kompozitsion tendentsiyalar ortib bordi.

Shu davr ichida tarixiy o'zbek opera larida janr talqini, mavzu va mazmun doirasi yanada kengaytirilib, jahon mumtoz adabiyoti asosidagi N.Zokirovning Shekspir tragediyalari asosida yaratilgan «Hamlet» va «Makbet» opera-dilogiyasi, hozirgi zamon ijtimoiy muammolari N.Zokirovning «Muxtoriyat» operarsi, O.Abdullayevning «Vafo», F.Yanovskiyning «Orkestr» operasi, tarixiy shaxslar siymolari M.Bafoyevning «Al-Farg'oniy», falsafiy mavzular (I.Akrom Akbarovning «Ibtido xatosi» oratoriyasi opera janridagi kompozitsion tendentsiyalarining keyingi rivojini belgiladi. Bu davrda o'zbek kompozitorlari mazmunni talqin qilishda asosiy urg'u milliy hamda umumbashariy ma'nnaviy kadriyatlarni



uyg'unlashtirishga, murakkab vaziyat va psixologik holatlarni chuqur ifoda etishga qaratib, opera asarlarida o'zbek xalq musiqa merosi va milliy ijrochilik an'analarini zamonaviy ifoda va texnik vositalar bilan kompozitsion uzviylikni ifoda etishga erishdilar.

Bu borada «Opera va balet san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-dekabrdagi PQ-64-son qarori hozirgi kunda haqiqiy ma'nodagi yangi davr kishilarini mamlakatimiz taraqqiyotini, xalqimizni yanada jipslashtiruvchi, el-yurtimizni yurakdan sevgan, uning taqdirini o'z taqdiri deb bilgan fidoyi insonlarni ta'minlay oladigan, Vatanga yuksak muhabbat tuyg'ularni shakllantirishga qaratilgan uyg'unlashuv xohishi boshlanganligi bilan ahamiyatlidir. Shu ma'noda, afsonalarga aylanib ketgan Shiroq, To'maris, Spitamen kabi shaxslar yurtimizni himoya qilish, uni dushmandan ko'z qorachig'idek asrash uchun bor kuch va imkoniyatini safarbar etgan, bu yo'lda moliyu jonini, sha'nini-shavkatini, hayoti va o'zligini ayamagan qahramonlar obrazini o'z ideliga aylantiruvchi avlodlar safini kengaytirishga qaratilgan muhim hujjatdir.

Xulosa. Xulosa sifatida qayd etish mumkinki, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy olishning birdan-bir yo'li zamonaviy ilmlarni egallash jarayonida bo'lajak musiqa o'qituvchilarida kopozitsion tendantsiyalarning jahon, yevropa mamlakatlari, O'zbekiston diyorida opera va balet musiqasiинг tarixiy jarayonlari vositasida navqiron avlod vakillarini har tomonlama bilimli, hur fikrli, Vatanni ko'z qorachig'idek asraydigan, uning ma'naviy istiqboli uchun borini baxsh etadigan yangi avlod vakillarini tarbiyalash oliy maqsaddir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021-йилнинг 27-декабрида “Опера ва балет санъатини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-64-сонли қарори;

2. “Ўзбекистон композиторлари ижодида замонавий технологиялар: муаммо ва ечимлар” талабалар илмий-назарий конферентсиясининг маъruzalар тўплами Тошкент 2019.-59.6.

3. Имамин Қирғизов, Имомова Одинахон //ЁШ АВЛОДНИНГ МАЬНАВИЙ -АХЛОҚИЙ КАМОЛОТИДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИК РАҲИМАХОНИМ МАЗОХИДОВА ТИМСОЛИДА САНЪАТКОР ХОТИРАСИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7. October 2022. 108-117 pages.



-
4. Imyamin Qirg'izov //O'ZBEK MUSIQA SAN'ATI RIVOJINING ASOSIY OMILLARI// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 331-336 pages.
5. Imyamin Kirgizov, Kirgizov Iqboljon Imyaminovich, Ahmadjon Nurmuhamedjanov, Sobirov Bahodirjon Sotvoldievich, Najmetdinova Mavludakhon Mamasodikovna, Ataboeva Shoxidakhon Juraevna // "The Pleasure of Singing, Listening and Understanding Navoi" // Annals of the Romanian Society for Cell Biology., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 3, 2021, Pages. 2410-2413.
6. Imyamin Kirgizov, Iqbol Kirgizov, Mavluda Najmetdinova, Shohida Atabayeva. (2022). THE GENESIS OF THE DEVELOPMENT OF MUSIC CULTURE. *Archive of Conferences*, 57-60.
7. Sultonali Mannopov, Mavluda Najmetdinova, Shokhida Ataboeva, Iroda Nazarova, Jamoldin Mo'ydinov // Analysis of Research on Aesthetic Features of Uzbek Folk Music// Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI). Volume 12, Issue 10, October 2021. 3528-3533 pages.
8. Ulugbek Rahmonov Karimovich, Najmetdinova Mavluda Mamasodikovna, Ergashev Alijon Abdullaevich //The Role and Importance of Music Clubs in The Leisure of Young People// Journal of Pedagogical Inventions and Practices. 22-11-2021. 47-49 pages.
9. Sultonali Mannopov, Abdulhay Karimov, Abdusalom Soliev, Ulugbek Isakov, Tokhir Shokirov, Rustam Orziboev //Development of Uzbek National Singing Art during Independence// Annals of R.S.C.B., ISSN:1583-6258, Vol. 25, Issue 4, 2021, Pages. 6845-6853.
10. Mavluda NAJMETDINOVA //Общественно-культурные мероприятия теоретические основы// Жамият ва инновациялар – Общество и инновации – Society and innovations. Issue 02(2022). 473-479 стр.
11. Мавлуда Нажметдинова //Оммавий-маданий тадбирларнинг назарий асослари// Общество и инновации. 02(2022). 473-479 стр.
12. Ulugbek Rahmonov, Alijon Ergashev, Mavludahon Nazhmetdinova, & Shohista Usmonova. (2021). IN SHAPING THE SOCIO-SPIRITUAL THINKING OF YOUNG PEOPLE IN THE MUSICAL ART OF THE GREAT SCHOLARS OF THE EASTERN RENAISSANCE POSITION HELD. *Archive of Conferences*, 54-57.
13. М.Нажметдинова, Жўрабоева Ҳакимахон //МАҚОМ САНЬАТИ ВА УНИНГ ЁШЛАР МАҲНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИГА ТАЪСИРИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(2), Feb., 2023. 813-817 pages.
14. Najmetdinova Mavluda Mamasodiqovna //SPECIFIC FEATURES OF PUBLIC-CULTURAL EVENTS// International Scientific Journal "Science and Innovation". Series 1. Volume 1. Issue 1. 892-902 pages.



15. Mavludaxon Najmetdinova //YOSHLARNING ESTETIK TARBIYASINI SHAKLLANTIRISHDA - AJDODLAR MEROSINING TUTGAN O'RNI// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 990-993 pages.
16. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиковна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАҲНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.
17. Sharipova Odinakhon Shavkatjon kizi, Najmetdinova Maluda Mamasodikovna //ЎЗБЕК МУСИҚА САНЪАТИ ВА МАДАНИЯТИ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР// "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal. Volume 3. Issue 1 / March 2022. 585-588 pages.
18. Нажметдинова Мавлуда Мамасодиковна //ОММАВИЙ-МАДАНИЙ ТАДБИРЛАРНИНГ ЁШЛАР МАҲНАВИЙ ДУНЁҚАРАШИНИ ЮКСАЛТИРИШДАГИ ЎРНИ// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. VOLUME 1. ISSUE 6. 282-287 pages.
19. Шокиров Тохиржон Нурмаматович //МИЛЛИЙ МУСИҚА МАДАНИЯТИ ВА УНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (фольклор, достончилик, мақом мисолида)// SCIENCE AND INNOVATION INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. № 3, 2022. 31-38 pages.
20. Шокиров Тохиржон Нурмаматович //АБУ НАСР ФОРОБИЙНИНГ МУСИҚА ИЛМИГА ҚЎШГАН ҲИССАСИ// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. VOLUME 2 | ISSUE 10/2. October 2022. 353-359 pages.
21. Takhirjon N. Shakirov //SUCCESSION IS THE MAIN PRINCIPLE OF DEVELOPMENT OF NATIONAL MUSIC CULTURE// Oriental Journal of Social Sciences. 08.11.22. Pages: 1-10.
22. Shokirov Tokhirjon Nurmamatovich //THEORETICAL OF NATIONAL MUSIC CULTURE FUNDAMENTALS// European Scholar Journal (ESJ). Vol. 2 №.9, SEPTEMBER 2021. 37-39 pages.
23. Tursunova Laylo //FUNCTIONS OF MUSICAL CULTURE IN THE FORMATION OF A SPIRITUAL WORLD VIEW// World Bulletin of Social Sciences (WBSS). Vol. 6, January, 2022. 72-77 pages.
24. Baxodir Sobirov, Dilafruz Yuldasheva, Nazarova Iroda, & Tursunova Laylo. (2022). MUSICAL WORKS AND THEIR PLACE IN HUMAN LIFE. *Archive of Conferences*, 53-56.